



## TOURISM TO VISIT ANCIENT PLACES

Poziljanov Xumoyunmirzo G'ayratjon o'g'li <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Andijan State University, Socio-Economic Faculty, 1st year student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4820239>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> May 2021

Accepted: 20<sup>th</sup> May 2021

Online: 25<sup>th</sup> May 2021

### KEY WORDS

Tourism, Uzbektourism,  
infrastructure, complex, travel  
companies

### ABSTRACT

*This article provides information about tourism, its importance and the development of the field of pilgrimage tourism.*

## ZIYORAT TURIZMI

Poziljanov Xumoyunmirzo G'ayratjon o'g'li <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Andijon Davlat Universiteti, Ijtimoiy-Iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich talabasi

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-May 2021

Ma'qullandi: 20-May 2021

Chop etildi: 25-May 2021

### KALIT SO'ZLAR

Turizm, O'zbekturizm,  
infrastruktura, kompleks,  
sayyohlik kompaniyalari

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada turizm haqida ma'lumotlar, uning ahamiyati va ziyorat turizmi sohasini rivojlantirish to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

Turizm (fransuzcha: *tour* — sayr, sayohat), sayyoqlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Turizmning tarixi 19 asr boshlariga borib taqaladi.

Dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan (1815). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi

Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so'ng u o'zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyoxlik guruxlari AQShga jo'natildi.

Ko'p asrlik tarix guvohki, insonga savdoni rivojlantirish, yangi yerlarni ochish va o'zlashtirish, resurslar va yangi transport yo'llarini izlab topish maqsadida jahon bo'ylab sayohat qilish xos bo'lgan. Sivilizatsiyamizning rivojlanish davri unchalik katta bo'lmay, besh ming yilga yaqin hisoblanadi, biroq faqat yaqin o'tmishdagi sayohatlar haqidagi hikoya va tasvirlargina



saqlanib qolingan. Tarixdan yangi qit'a va erlarni, xalqlar va tabiiy hodisalarni ochgan, o'ziga xos geografik tizimlarni asoslab bergan buyuk sayohatchilarning nomlari bizga ma'lum. Sayohatchilikning rivojlanishiga ziyoratchilar ham munosib hissa qo'shganlar. Turli din vakillari bo'lgan ziyoratchilar o'z dinlarini yoyish va muqaddas joylarga borib ziyorat qilish maqsadida uzoq va mashaqqatli sayohatlarni amalga oshirganlar. Salb yurishlari o'rta asrlarning mashhur hodisalari sifatida qayd etiladi. Hozirgi paytda ziyoratchilik diniy turizmning asosini tashkil qilib, o'z faoliyatida keng miqyosga ega hisoblanadi. Bunga misol tariqasida islom dini vakillarining muqaddas Makkai mukarrama shahriga hajga borishi yoki xristianlarning Quddus shahriga ziyorat qilishlarini keltirib o'tish kifoya. Sayohatlarning katta qismi yangi savdo yo'llarini, yangi yer va mamlakatlarni ochish maqsadida amalga oshirilgan. Buyuk arab olimi va sayohatchi Ibn Battuta (Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh al-Lavati at-Tanji) (1304—1368) 21 yoshidan sayohat qilishni boshlagan va sharqning barcha mamlakatlarini (70 ming chaqirimdan ortiq) piyoda bosib o'tgan, SHimoliy Afrika mamlakatlari, Xitoy va Hindistonda bo'lgan. U o'zining mashhur «Rixle» deb nomlangan asarida ko'plab mamlakat va savdo yo'llarining geografik nomlarini, xalqlarning urf-odatlarini batafsil tasvirlab bergan. Italiyalik savdogar Marko Polo (1254-1324) 1271 —1295 yillarda Xitoyga safar uyushtirib, u erda 17 yil istiqomat qilgan va bu mamlakat haqidagi kamyob ma'lumotlarni to'plab, o'zining kitobida aks ettirgan.

Movarounnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va Temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo'lgan. Uning elchisi 1403-yili Parijga kelgan. Ispaniyalik Klavixoning

"Buyuk Temurning hayoti va faoliyati" kitobida Movarounnahrda ijtimoiy hayot va sayyoxlarning Temur davlatiga intilishi aks etgan. Hozirgi davrda Turizm dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatda, Turizm turizm tashkilotlari orqali turizm marshrutlari bo'yicha uyushtiriladi. Turizmning juda ko'p turlari va shakllari mavjud (ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar).

Ziyorat turizmi — aziz joylar, insonlar, diniy qadamjolar bilan tanishish maqsadida boshqa joylarga borish. Bugungi kunda respublikamizda islom ziyoratgohlari ko'p. Turistlar boshqa davlatlar madaniyatini, san'atini o'rganish maqsadida ziyoratga borishadi. Bu tarixiy yodgorliklarni yaxshi o'rganish va ularni ko'rish uchun boradigan turistlarga yo'nalishlar tashkil qilinadi. O'zbekiston tonda turizm sohasiga rahbarlikni "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi (27-iyul 1992-yilda tuzilgan) olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasi rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish va boshqalardan iborat. O'zbekiston sayyohlik salohiyatini namoyish etish, ayniqsa, uni islom dunyosidagi ziyorat turizmi markazlaridan biriga aylantirish maqsadida tashkil etilayotgan mazkur tadbir jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otmoqda. Unda islom dunyosidagi muhim xalqaro tashkilotlar, yetakchi din ulamolari, ilmiy-akademik doiralar, ziyorat turizmi sohasidagi sayyohlik kompaniyalari ishtirok etish istagini bildirgani buning yaqqol tasdig'idir.



Binobarin, ziyorat turizmi, ya'ni muqaddas joylarni ziyorat qilish ikki asosiy, ya'ni ma'rifiy sayohatlarga yo'naltirilgan haj va diniy turizmdan iboratdir. Shu ma'noda, yurtimizning sayyohlikning aynan ushbu yo'nalishi bo'yicha salohiyati g'oyatda yuksak. Islom dunyosidagi eng qimmatbaho Qur'oni Karim namunalaridan biri — Hazrati Usmon Mus'hafi O'zbekistonda ekani, muhaddislar imomi, hadis ilmi olimlarining ustози Muhammad al-Buxoriy, Naqshbandiya tariqatining ko'plab yetuk izdoshlari bizning zaminimizda kamol topgani va so'nggi manzillari shu yerda ekanligi, qolaversa, bir

qancha diniy markazlarning mavjudligi shundan dalolat beradi

Mamlakatimizda turizمنى rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti. O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
- 2) Turizm asoslari (O'quv qo'llanma)
- 3) Turizmning iqtisodiyotdagi o'rni yoxud hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanish yo'llari (qo'llanma)